

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**QODIROV ILXOMJON TOJIAXMATOVICH**

**FARG‘ONA VODIYSI QAZUVCHI ARILARI (HYMENOPTERA:  
SPHECIDAE) FAUNASI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Qodirov Pkhomjon Tojiakhmatovich**

Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilari (Hymenoptera: Sphecidae) faunasi ..... 3

**Кодиров Илхомжон Тожирахматович**

Фауна роющих ос (Hymenoptera: Sphecidae) Ферганской долины ..... 21

**Kodirov Pkhomjon Tajiakhmatovich**

Fauna of digger wasps (Hymenoptera: Sphecidae) of the Fergana Valley ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**QODIROV ILXOMJON TOJIAXMATOVICH**

**FARG‘ONA VODIYSI QAZUVCHI ARILARI (HYMENOPTERA:  
SPHECIDAE) FAUNASI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/B443 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.izoology.uz](http://www.izoology.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Axmedova Zuhra Yuldashevna**  
biologiya fanlari nomzodi, kata ilmiy xodim

**Rasmiy opponenlar:**

**Bekchanov Xudoybergan O'rinovich**  
Biologiya fanlari doktori, professor

**Musayev Dilshod Muxammadjanovich**  
Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
kata ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.52.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «30» oktyabr kuni soat 15<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232<sup>b</sup>-uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 289-04-65, E-mail: [zoology@academy.uz](mailto:zoology@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (№731-AP-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232<sup>b</sup>-uy. Tel.: (+99871) 289-04-65.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «17» oktyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «17» oktyabr 10-raqamli reestr bayonnomasi)



**B.R. Xolmatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, b.f.d., professor

**G.S. Mirzayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, b.f.d., professor

**A.E. Kuchboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan iqlim o'zgarishlari, antropogen omillarning o'sib borishi hamda tabiiy landshaftlardagi muhit o'zgarishi hasharotlar populyatsiyasi hamda ularning xilma-xilligining kamayishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, tabiiy va urbanizatsiyalashgan hududlarda yashovchi o'simlik va hayvonot olami vakillarining inqiroziga sabab bo'lmoqda. Bu esa, bioxilma – xillikka sezilarli darajadagi talofat yetkazish bilan birga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ham xavf tug'dirmoqda. Shundan kelib chiqib, hasharotlarning bioxilma – xilligi va populyatsiyasidagi o'zgarishlarni baholash, ularning tarqalish dinamikasini o'rganish hamda atrof – muhitga ta'sirini aniqlash, chora – tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda ekotizimning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan qazuvchi arilarning zamonaviy holatini baholash, faunistik tarkibini tahlil qilish, tarqalish hududlarini aniqlash va ularning xo'jalik ahamiyatini hamda zararini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, qazuvchi arilarning turli mintaqalarda tarqalishi, bioekologik xususiyatlari, sistematikasi va biogeotsenozlardagi ularning o'rnini, ahamiyati hamda ushbu hasharotlarning o'simlik ozuqa bazasiga ko'ra ixtisoslashuvi, zararli va zararsiz turlarini aniqlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda hasharotlar bioxilma-xilligini aniqlash va ularni muhofaza qilish hamda zararli turlariga qarshi kurashish chora tadbirlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, tabiiy ekotizimlar barqarorligini ta'minlash, hasharotlarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, 2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida<sup>1</sup> «...biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur'atlarini pasaytirish, hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini qayta tiklash» vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan Farg'ona vodiysining turli biotsenozlarida uchrovchi turlarini aniqlash, zoogeografik tarqalishi va bioekologik xususiyatlarini ochib berish, fauna uchun yangi turlarning ekotizimdagi o'rnini izohlash, zararkunandalarga qarshi kurashda o'rnini belgilash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19 sentabrdagi 408 sonli "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-sonli "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 11 iyundagi 484-son qarori.

to'g'risida" gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo miqyosida Sphecidae oilasiga mansub arilarning turlar tarkibi, tarqalishi, bioekologik xususiyatlari, taksonomiyasi, ekosistemalardagi roli, ularning xo'jalikdagi ahamiyati bo'yicha xorijlik olimlar: S. Matsumura (1911), J. de Beaumont (1951), S. Kuwayama (1967), K. Tsuneki (1971), V.A. Kolesnikov (1973), R.M. Bohart and A.S. Menke (1976), J. Gepp va E. Bregant (1986), A. Molumby (1997), G.A.R de Melo (1999), R. Burakowski et al (2000), S.T.P. Amarante (2002), R.C Peruquetti and M.A. Del Lama (2003), A.S. Menke (2004), P. Bogusch P et al. (2005), S.G. Potts, et al. (2005), F. Ribeiro (2006), M.L.T. Buschini and T.D. Woiski (2008), F. Ribeiro and C.A. Garófalo (2010), H. Dollfuss (2010), D. Mader (2013), J.J. Morrone (2014), Ch-H Wang et al (2016), M. Madl (2021) va boshqalar tomonidan o'rganilan.

MDH mamlakatlarida qazuvchi arilar, Sphecidae oilasi, faunasi, ekologiyasi, biologiyasiga oid tadqiqot ishlari E.A. Eversman (1849), F.F. Kohl (1889), V.V. Gussakovskiy (1930, 1935, 1936, 1937), S.N. Myarseva, (1963, 1964, 1968, 1969), V.L. Kazenas (1968, 1969, 1978, 2001, 2002, 2004, 2013, 2016), P.G. Nemkov (1995, 1998, 2000, 2003, 2005, 2006, 2007, 2008, 2009), R.T. Bagirov (2007, 2011), M.V. Mokrousov va boshq. (2011), Y.N. Danilov (2013, 2014), Y.N. Danilov & M.V. Mokrousov (2016), ilmiy asarlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqot ishlari dastlab O.I. Rodoshkovskiy (1877), F. Morawits (1893), V.V. Gussakovskiy (1928), Sh. Islamov (1971, 1986), A.G. Davlatshina (1979), T.T. Kulumbetova (1999), V.L. Kazenas (2001, 2002), M.V. Mokrousov, V.A. Zryanin (2015), Y.N. Danilov (2017, 2020), M.J. Medetov, M.A. Embergenov (2024), va boshqa olimlarning ishlarida keltirilgan.

Biroq, Farg'ona vodiysi mintaqasining tabiiy va antropogen sharoitida qazuvchi arilarning tur tarkibi, morfologik, molekulyar-genetik, bioekologik xususiyatlari va ularning ahamiyatini o'rganishga oid tadqiqotlar yuqorida keltirilgan ishlarda to'laqonli ma'lumot bera olmaydi. Shu sababli, Farg'ona vodiysi hududlarida tarqalgan qazuvchi arilar – Sphecidae oilasining tur tarkibini aniqlash, ularning bioekologik xususiyatlarini o'rganish va molekulyar-genetik tavsiflash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti Biologiya kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Farg'ona vodiysi o'simlik va hayvonot dunyosi: tabiiy resurslar, oqilona foydalanish va elektron ma'lumotlar bazasi" (2020-2023) ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Farg‘ona vodiysi hududida Sphecidae oilasi vakillarining faunasining zamonaviy holatini baholash, ekologik xususiyatlarini ochib berish hamda ayrim turlarini molekulyar-genetik aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Farg‘ona vodiysi hududida tarqalgan qazuvchi arilar (Sphecidae) ning taksonomik tarkibini tahlil qilish;

qazuvchi arilarning morfologik xususiyatlarini o‘rganish;

qazuvchi arilarning bioekologik xususiyatlarini tahlil etish;

qazuvchi arilarni zoogeografik hududlar bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish;

ayrim munozarali bo‘lgan qazuvchi arilarning molekulyar-genetik tavsiflash.

Farg‘ona vodiysi hududida tarqalgan qazuvchi arilarning elektron ma’lumotlar bazasini yaratish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Farg‘ona vodiysi hududida tarqalgan qazuvchi arilarning Sphecidae oilasiga mansub turlari olingan.

**Tadqiqot predmeti** Farg‘ona vodiysi hududida uchrovchi qazuvchi arilarning tur tarkibi, bioekologik xususiyatlari, tarqalishi, xo‘jalik ahamiyati va molekulyar – genetik identifikatsiyasi tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlarni amalga oshirishda kuzatuv, entomologik, zoogeografik, ekologik, qiyosiy tahlil, molekulyar – genetik hamda statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Farg‘ona vodiysida Ammophilinae, Sphecinae, Sceliphrinae kenja oilalariga mansub 8 avlod, 26 tur qazuvchi arilarning taksonomik tarkibi tahlil qilinib, tadqiqot hududi uchun 25 tur ilk bor aniqlangan;

Farg‘ona vodiysi sharoitida ilk bor uchratilgan turlarning morfologik va bioekologik xususiyatlari ochib berilgan;

Farg‘ona vodiysida aniqlangan Sphecidae oilasi vakillarining 21 turi tuproqlarda, 3 turi turar joy binolarida, va 2 ta turi boshqa ari uyalaridan foydalanib uya qurishi aniqlangan;

Qazuvchi arilar ozuqa zanjirida, ularning lichinkalarini – 11 tur Lepidoptera, 10 tur Orthoptera va 5 tur Aranei turkumi vakillarining lichinkalari bilan oziqlantirilishi isbotlangan;

Sphecidae oilasiga mansub ari turlarining imago bosqichidagi trofik aloqalarida o‘simliklar ishtiroki o‘rganilib, 19 oilaga mansub 30 tur o‘simlik nektarlari bilan oziqlanishi aniqlangan;

Farg‘ona vodiysida tarqalgan Sphecidae oilasiga mansub arilar 9 ta zoogeografik guruhlariga kirishi kuzatilib, turlarning eng ko‘p uchrashi 42,3 % Transpaleartik guruh turlari, va 3,8 % eng kam qayd etilgan Paleartika – Efiopiya, Paleartik, Indo–Malay, va Paleartika – Efiopiya – Indo–Malay – Avstraliya guruhlariga mansub ekanligi aniqlangan;

*Podalonia*, *Ammophila*, *Sphex* va *Sceliphron* avlodlariga mansub 10 turning mtDNK si COXI sohasi nukleotidlar ketma-ketligi aniqlangan va genetik materialdagi farqlar asosida o‘zgaruvchanlik sabablari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: Qazuvchi arilarning Sphecidae 3 kenja oila 8 avlodga mansub 26 turlarining Farg‘ona vodiysining turli

geografik hududlari bo'yicha tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari ishlab chiqilgan;

Farg'ona vodiysi hududida Sphecidae oilasiga mansub turlar bo'yicha axborotlarni saqlovchi ma'lumotlar bazasi yaratilgan;

Dissertatsiya materiallaridan OTM biologiya yo'nalishi talabalari umurtqasizlar zoologiyasi, zoogeografiya, hayvonlar ekologiyasi kurslarida foydalanish uchun manba yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda klassik va zamonaviy usullarning qo'llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar va tahlillar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat fundamental va amaliy loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, populyatsion ma'lumotlarni zamonaviy dasturlar asosida statistik tahlil qilinganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg'ona vodiysida tarqalgan qazuvchi arilar sistematik va ekologo-geografik tahlil qilinganligi, molekulyar-genetik tavsiflanganligi hamda ularning bioekologik xususiyatlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Farg'ona vodiysi hududida tarqalgan qazuvchi arilar (Sphecidae) turlarining bioekologiyasi, mavsumiy soni va dinamikasi, landshaftlar bo'yicha tarqalishi, shuningdek, ularning yovvoyi tabiatdagi endemik va qizil kitobga kiritilgan o'simliklarni changlatishdagi ahamiyati ochib berilganligi qazuvchi arilarning noyob va kam sonli turlarini aniqlash va muhofazalash bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Farg'ona vodiysi qazuvchi arilari (Hymenoptera: Sphecidae) faunasi" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

molekulyar genetik tadqiqotlar natijasida, Sphecidae oilasi turlarining mtDNK (COXI) sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlari Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) ning 2024-yil 10-apreldagi ma'lumotnomasi). Natijada. *S. flavipennis* – OP856943, *S. pruinosus* – OP860922, *A. sabulosa* – OP601364, *A. heydeni* – OP601358, *P. affinis* – OR345346, *P. ebenina* – OR345060, *P. hirsuta* – OR342224, *S. madraspatanum* – PP598623, *S. deforme* – PP598621, *S. destillatorium* – PP598620 turlari uchun identifikatsiya raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda turlarni aniqlash va filogeniyasini o'rganish imkonini bergan.

Farg'ona vodiysi hududida tarqalgan qazuvchi arilarning 3 ta kenja oila 6 ta avlodga mansub 10 turga mansub - *A. heydeni*, *A. sabulosa*, *E. dives*, *S. flavipennis*, *P. nudatus*, *P. viduatus*, *S. madraspatanum*, *S. deforme*, *Ch. femoratum*, *Ch. omissum*) turlarining 10 nusxa namunalari Respublikada yetakchi bo'lgan Zoologiya instituti "Zoologiya kolleksiyasi" noyob obyektiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 7-oktyabrdagi №

4/1255-2216-son ma'lumotnomasi). Natijada, namunalar Farg'ona vodiysi hududlari bo'yicha Institut kolleksiya fondini boyitish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta respublika va 4 ta xalqaro va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etish tavsiya qilingan jurnallarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

### **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sphecidae oilasiga mansub qazuvchi arilarning o'rganilgan holati”** deb nomlangan birinchi bobda Sphecidae oilasi vakillarining biologiyasi hamda ekologiyasini xorijiy davlatlarda o'rganilish darajasi bayon etilgan bo'lib, unda qazuvchi arilarning dastlabki o'rganilish tarixi, ularning bugungi kundagi tur tarkibi, dominant turlar biologiyasi va ekologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek Markaziy Osiyo va O'zbekistonda bugungi kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqot natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan holda yoritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Farg'ona vodiysi qazuvchi arilarini o'rganish uslublari va materiallari”** deb nomlanib uch bo'limdan iborat. Unda tadqiqot olib borilgan hududlarning tabiiy iqlim sharoitlari, tadqiqot materiallari va usullari hamda molekulyar-genetik usullar bayon qilingan.

Bobning 2.1-bo'limida Farg'ona vodiysining fizik-geografik xususiyatlari, iqlimi, daryo va ko'llari, tuproqlari hamda o'simliklar qoplami bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu bobning 2.2-bo'limi tadqiqot materiallari va usullariga bag'ishlangan bo'lib, Farg'ona vodiysining Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlari xududida joylashgan tog' va tog'oldi, cho'l hududlaridan, qishloq xo'jalik agrobiotsenozlaridan, fermer xo'jaliklardan hamda tomorqa xo'jaliklaridan 2020-2024-yillar mobaynida entomologik namunalar yig'ilgan. Namunalar yig'ish asosan, mart oyidan dekabr oyiga qadar, shuningdek ma'lum qismi esa fevral oylarida yig'ilgan bo'lib, tadqiqot ishlari davomida 1292 donadan ortiq hasharot namunalari yig'ilgan va o'rganilgan. Hasharotlarni kuzatish ishlari butun vegetatsiya davomida doimiy kuzatish nuqtalarida har 7-10 kunda, marshrut

usulida esa oyiga 2-3-martadan amalga oshirilgan. Shuningdek ushbu bo‘limda entomologik tutqich (sachok) usuli, kolleksiya uchun materiallarni qayta ishlash, hasharotlarni entomologik to‘g‘nog‘ichlarga sanchish, kolleksiya materiallariga yorliq yopishtirish usullari haqida ba‘tafsil ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning 2.3-bo‘limida Sphecidae oilasi arilarini ayrim munozarali turlarni molekulyar-genetika uslublari yordamida o‘rganilganligi yuzasidan ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu tadqiqot doirasida ularning genom DNK sini ajratib olish uchun Dneasy Tissue Kit (QZAGEN GmbH, Germany) va “Diatom DNA Prep” (Rossiya) reaktivlaridan foydalanilgan. Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) Sphecidae oilasi vakillarini mitoxondrial DNK sini COXI sohasi uchun keng qo‘llaniladigan markerlar yordamida amalga oshirilgan. Olingan COXI sohasiga mansub nukleotidlar ketma- ketliklari asosida maksimal extimollik (maximum likelihood, ML) usuli orqali filogenetik daraxti tuzilgan bo‘lib, u 1000 ta butstrap tokrorlash bilan tasdiqlangan. Bu jarayon va uning natijalari haqida ushbu bo‘limda batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilarining faunistik tahlili**” deb nomlanib, unda mazkur hududda yig‘ilgan Sphecidae oilasiga mansub arilarining tur tarkibi va ularning tarqalishi bo‘yicha ma‘lumotlar bayon etilgan.


Bobning 3.1-bo‘limi “Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilarning (Sphecidae) tur tarkibi va taksonomik tahlili” deb nomlanib, unda, Farg‘ona vodiysi sharoitida tarqalgan Sphecidae oilasi arilarining taksonomik tarkibi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu oilaga 3 kenja oila, 8 avlodga mansub 26 turdan iborat ekanligi aniqlangan. Natijada, Ammophilinae kenja oilasining 3 avlodga mansub 12 turi, Sphecinae kenja oilasining 3 avlodga mansub 9 turi, Sceliphrinae kenja oilasining 2 avlodga mansub 5 turi, olib borilgan hududlarda tarqalganligi aniqlangan (1-rasm).

Tadqiqot hududida Ammophilinae kenja oilasiga mansub 3 ta avlodning turlari qayd qilindi. Xususan *Podalonia* avlodiga mansub turlar (*P. affinis*, *P. fera*, *P. hirsuta*, *P. luffi*, *P. tydei*, *P. ebenina*) nisbatan ko‘proq uchrab, jami 6 ta tur aniqlandi, Ularning faunada ulushi 23,04% ni tashkil etdi. *Ammophila* avlodiga mansub, 5 ta tur (*A. campestris*, *A. heydeni*, *A. sabulosa*, *A. hungarica*, *A. gracillima*) aniqlanib, ularning faunadagi ulushi jami yig‘ilgan turlarning 19,2% ini tashkil qildi. Mazkur kenja oilaning *Eromochares* avlodiga mansub 1 ta turi qayd qilinib faunadagi ulushi 3,8% ni tashkil etadi.

Sphecinae kenja oilasiga mansub 3 ta avlod turlari qayd qilindi. Jumladan *Sphex* avlodiga mansub 4 ta tur (*S. flavipennis*, *S. funerarius*, *S. pruinosus*, *S. leuconotus*) qayd qilinib ularning ulushi 15,36% ni tashkil etdi. *Prionyx* avlodiga mansub 3 ta tur (*P. nudatus*, *P. lividocinctus*, *P. viduatus*), aniqlandi va ular 11,52% ni, *Palmodes* avlodiga mansub 2 ta tur, (*P. melanarius*, *P. occitanicus*), aniqlanib, ularning faunadagi ulushi 7,6% ni tashkil qildi.

Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilarning Sceliphrinae kenja oilasiga mansub 2 ta avlodning 5 ta turi qayd qilindi. Xususan *Chalybion* avlodiga mansub, 2 ta tur (*Ch.turanicum*, *Ch. femoratum*) aniqlanib, ular Sphecidae oilasi faunasining 7,6%

ini, *Sceliphron* avlodiga esa 3 ta turi (*S. destillatorium*, *S. madraspatanum*, *S. deforme*) tegishli bo‘lib, faunaning 11,52% ni tashkil qiladi.



**1-rasm. Farg‘ona vodiysi sharoitida tarqalgan Sphecidae oilasi turlarining taksonomik taqsimlanishi**

“Sphecidae oilasi vakillarining Farg‘ona vodiysida tarqalish areallari” deb nomlangan 3.2-bo‘limida arilarning tarqalishi, topilgan joyi va vaqti bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Farg‘ona vodiysida olib borilgan entomologik tadqiqotlar natijasida, Sphecidae oilasiga mansub aniqlangan 26 turdan, 25 tasi (96.1 %) mazkur hudud uchun ilk marotaba qayd etildi.

Namangan viloyatining 10 ta tumanidan entomologik namunalar yig‘ilib, Sphecidae oilasiga mansub 18 ta tur aniqlandi. Jumladan, Namangan viloyatining Mingbuloq tumanida 8 ta tur aniqlanib, umumiy yig‘ilgan turlarni 30,8% ni tashkil qildi. Yangiqo‘rg‘on va Pop tumanlarida 3 tadan tur aniqlanib, 11,53%, Kosonsoy tumanidan, 6 ta tur, (23,07%). Norin, Uychi va Chortoq tumanlaridan 1 tadan tur (3,8%) hamda To‘raqo‘rg‘on va Uchqo‘rg‘on tumanlaridan 2 tadan tur, (7,69%) ni qayd qilindi.

Farg‘ona viloyatining 8 ta tumanidan yig‘ilgan entomologik namunalarda, Sphecidae oilasiga mansub 21 ta tur aniqlandi. Jumladan, Farg‘ona viloyatining Yozyovon tumanida 16 ta (61,53 %), Beshariq tumanida 6 ta tur aniqlanib, ularning umumiy yig‘ilgan turlarga nisbatan ulushi mos ravishda 23,07 % ni tashkil qildi. Shuningdek Quvasoy shahridan 4 ta tur (15,38%), Rishton tumanida 3 ta tur, (11,53%), Bog‘dod, Dang‘ara, Quva tumanlaridan 2 tadan tur, (7,69%), Oltiariq tumanidan esa 1 ta tur qayd qilindi (3,8%).

Andijon viloyatining 7 ta tumanidan entomologik namunalar yig'ilib, Sphecidae oilasiga mansub 12 ta tur aniqlandi. Jumladan, Andijon viloyatining Ulug'nor tumanida 10 ta tur aniqlanib, ushbu turlar umumiy yig'ilgan turlarning (38,4%) ni tashkil qildi. Shaxrixon va Ho'jabod tumanlaridan 3 tadan tur, aniqlanib ularning entomofaunadagi ulushlari mos ravishda (11,53%) hamda Jalaquduq, Bo'ston, Baliqchi, Izbosgan tumanlaridan 2 tadan tur aniqlanib, (7,69%) ni tashkil etdi.

Farg'ona vodiysining turli geografik hududlaridan yig'ilgan Sphecidae oilasi arilarining 12 turi (46%) Andijon viloyatida, 18 turi (69%), Namangan viloyatida, 21 turi (80%) esa Farg'ona viloyatida uchrashligi aniqlanib, qazuvchi ari turlaridan 1 ta (*Sceliphron deforme*) turi faqat Andijon viloyatida, 1 ta (*Sphex leuconotus*) turi faqat Namangan viloyatida, 4 ta (*Eremochares dives*, *Palmodes occitanicus*, *Prionyx nudatus*, *Prionyx viduatus*) turlari esa faqat Farg'ona viloyatida uchrashligi qayd etilgan. Farg'ona vodiysining turli geografik hududlaridan yig'ilgan qazuvchi arilar oilasi vakillarining xaritalarga koordinata nuqtalari qo'yilgan.

Bobning 3.3-bo'limi "Farg'ona vodiysi qazuvchi arilar (Sphecidae) zoogeografik tahlili" deb nomlanib, unda Farg'ona vodiysida qayd qilingan turlarning 9 ta zoogeografik guruhlariga mansubligi aniqlangan.

Bunga ko'ra, **I Palearktika Efiopiya turlar** Ular asosan cho'l va cho'l-dasht tarqalgan kserofillarini o'z ichiga oladi. Ushbu guruhga tadqiqot hududida qayd etilgan 1 ta (3.8%) tur (*A. gracillima*) kirishligi aniqlandi.

**II Palearktika-Efiopiya-Indo-malay turlar** Tarqalish areali Palearktikadan tashqari Efiopiya va Indo-malay guruhida tarqalgan turlar kirib, ushbu guruhga qayd etilgan turlardan 2 ta (7.69%) tur, (*P.viduatus*, *S. madraspatanum*) kirishligi aniqlandi.

**III Palearktika-Efiopiya-Indo-malay-Avstraliya turlar** - Tarqalish areali Palearktikadan tashqari Afrika, Avstraliya va Indo-malay guruhlarining cho'l hududlarida tarqalgan bo'lib, bu guruhga tadqiqot hududida qayd turlardan 1 ta (3.8%) tur (*P. tydei*) kirishligi aniqlandi

**IV Palearktik-Indomalay turlar** Tarqalish areali Palearktikaning janubiy-sharqiy qismi hamda Indomalay zoogeografik guruhlari bo'lgan tur kirib, ushbu guruhga 1 ta (3,8%) tur *S. deforme* kirishligi aniqlandi.

**V Transpalearktik turlar** Tarqalish areali Palearktikaning bir necha cho'l zonasidan o'rmon zonasigacha bo'lgan hududlarini egallagan turlar kirib, Farg'ona vodiysida aniqlangan turlardan 11 turi (*P. affinis*, *P. fera*, *P. hirsuta*, *A. campestris*, *A. sabulosa*, *A. hungarica*, *S. flavipennis*, *S. pruinus*, *S. leuconotus*, *P. melanarius*, *P. occitanicus*) mansub bo'lib jami aniqlangan turlarning 42,3% ini tashkil etadi.

**VI Qadimgi O'rta Yer dengizi turlar** – bu O'rta Yer dengizi atrofida joylashgan Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyoning qirg'oqbo'yi mintaqalarini o'z ichiga oladi. Bu hududning entomofaunasi asosan kserofil, mezofil-kserofil hamda evribiont turlardan iborat. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu guruhga qazuvchi arilarning 5 turi (ya'ni 19,2%) (*A. heydeni*, *S. funerarius*, *P. nudatus*, *P. lividocinctus* va *S. destillatorium*) kirishligi aniqlandi.

**VII Turon turlar** Tarqalish areali Turon past tekisligi cho‘l zonasida joylashgan turlari kirib, ushbu guruhga tadqiqot hududi Sphecidae oilasi qazuvchi arilaridan 2 ta (7.69%) tur (*Ch. femoratum*, *Ch. turanicum*) kirishligi aniqlandi.

**VIII Saxora-gobiy turlar** Tarqalish areali G‘arbiy Saxaro cho‘lining Atlantika qirg‘og‘idan to sharqda Gobiy cho‘ligacha bo‘lgan ulkan hududni egallagan turlar kirib, ushbu guruhga Farg‘ona vodiysida qayd etilgan turlardan 2 ta (7.69%) tur (*P. ebenina*, *E. dives*) kirishligi aniqlandi.

**IX Yevro-sibir O‘rta Osiyo turlar** Tarqalish areali Palearktikaning Yevropa-sibir hamda O‘rta Osiyo hududlarini egallagan tur kirib, ushbu guruhga tadqiqot hududida qayd etilgan turlardan 1 ta (3.8%) tur (*P. luffii*) kirishligi aniqlandi.

Bobning 3.4-bo‘limi “Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilarining (Sphecidae) landshaftlar bo‘yicha taqsimlanishi” deb nomlanib. Unda Farg‘ona vodiysining turli landshaftlarida tarqalishi tahlil qilingan. Sphecidae oilasi arilarining tarqalishini shartli ravishda quyidagicha landshaftlarga taqsimlandi, jumladan, Farg‘ona vodiysining qishloq ho‘jalik ekinlari yetishtiriladigan hududlari agrobiotsenozlarga shuningdek, Andijon, Namanagan va Farg‘ona viloyatlarining tog‘ va tog‘ oldi, cho‘l, to‘qay hududlari hamda Norin daryo, Qoradaryo va Sirdaryo atrofidagi tabiiy hududlari va tabiiy suv xavzalari (soylar va suv omborlari) atroflari tabiiy landshaftlarga kiritildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Sphecidae oilasi turlarini Farg‘ona vodiysining turli landshaftlari bo‘yicha taqsimlanishi**

№	Tur nomi	Soni		Landshaftlar			
		♂	♀	Tog‘ va tog‘ oldi	Cho‘l	To‘qay	Agrabiotsenoz
1	<i>Ammophila heydeni</i>	96	110	+	+	+	+
2	<i>A. hungarica</i>	43	45	+	+	-	-
3	<i>A. gracillima</i>	90	91	-	+	-	-
4	<i>A. sabulosa</i>	87	125	+	+	+	+
5	<i>A. campestris</i>	40	49	+	+	+	+
6	<i>Eremochares dives</i>	1	2	-	+	+	-
7	<i>Podalonia affinis</i>	3	4	+	+	+	-
8	<i>P. fera</i>	3	5	-	+	-	-
9	<i>P. hirsuta</i>	5	7	+	+	+	-
10	<i>P. luffii</i>	5	7	+	-	+	-
11	<i>P. tydei</i>	3	4	-	+	-	-
12	<i>P. ebenina</i>	15	20	-	+	-	-
13	<i>Chalybion turanicum</i>	21	15	+	+	+	+
14	<i>Ch. femoratum</i>	6	8	+	-	+	-
15	<i>Sceliphron madraspatanum</i>	120	129	+	+	-	+
16	<i>S. deforme</i>	1	1	-	-	-	+
17	<i>S. destillatorium</i>	44	41	+		+	+
18	<i>Palmodes occitanicus</i>	1	2	+	+	-	-

19	<i>P. melanarius</i>	3	5	-	+	-	-
20	<i>Prionyx lividocinctus</i>	2	3	+	+	-	-
21	<i>P. nudatus</i>	2	3	+	+	+	-
22	<i>P. viduatus</i>	1	1	-	+	-	-
23	<i>Sphex flavipennis</i>	2	5	+	+	-	-
24	<i>S. pruinosus</i>	3	5	+	+	-	-
25	<i>S. leuconotus</i>	1	1	+	-	-	-
26	<i>S. funerarius</i>	2	4	+	+	+	
<b>Jami:</b>		<b>600</b>	<b>692</b>	<b>18</b>	<b>21</b>	<b>12</b>	<b>7</b>

Tahlil natijalariga ko‘ra, tog‘ va tog‘ oldi hamda cho‘l landshaftlarida 14 ta turi (53,8%), tog‘ va tog‘ oldi hamda to‘qay landshaftlarida 11 ta (42,3%), tog‘ va tog‘ oldi hamda agrotsenoz landshaftlarida 6 ta (23,07%), cho‘l va to‘qay landshaftlarida 9 ta (34,6%), cho‘l va agrotsenoz landshaftlarida 5 ta (19,2%), agrotsenoz va to‘qay landshaftlarida 5 ta (19,2%) turlar o‘xshashligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida eng ko‘p turlar o‘xshashligi tog‘ va tog‘ oldi hamda cho‘l landshaftlarida qayd etilib, 53,8% ni eng kam o‘xshashlik esa, cho‘l va agrotsenoz, agrotsenoz va to‘qay landshaftlarida kuzatilib 19,2%, turlar o‘xshashligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilarning trofik aloqalari morfologik va bioekologik xususiyatlari**” deb nomlanib, unda turlarning morfologik va bioekologik hamda trofik aloqalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning 4.1-bo‘limi “Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilarining (Sphecidae) morfologik tahlili va bioekologik xususiyatlari” deb nomlangan. Ushbu bo‘limda Farg‘ona vodiysida olib borilgan tadqiqot natijalari hamda sohaga oid ilmiy adabiyotlar ma‘lumotlari asosida Sphecidae oilasiga mansub turlarning morfologik, morfometrik hamda bioekologik xususiyatlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan morfologik tadqiqot va natijalari adabiyot ma‘lumotlari bilan qiyosiy tahlillari asosida aniqlandi. Farg‘ona vodiysida yig‘ilgan Sphecidae oilasiga mansub arilarning morfologik jixatdan yirikroq turlari – *Sphex flavipennis*, *Eremochares dives*, *Sphex leuconotus*, *Sceliphron destillatorium*, aksincha boshqa turlarga nisbatan kichikroq turlar esa *Podalonia fera*, *Ammophila campestris* turlari ekanligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot va natijasida Sphecidae oilasi vakillarining *Podalonia fera*, *P. affinis*, *P. hirsuta*, *P. luffii*, *P. ebenina*, *P. tydei*, *Ammophila campestris*, *A. heydeni*, *A. sabulosa*, *A. hungarica*, *A. gracillima*, *Eremochares dives*, *Sphex flavipennis*, *S. funerarius*, *S. pruinosus*, *S. afer*, *Palmodes melanarius*, *P. occitanicus*, *Prionyx lividocinctus*, *P. nudatus* *P. viduatus* turlari tuproqda uya qurishi, *Sceliphron destillatorium*, *S. deforme*, *S. madraspatanum* turlari esa uy binolariga, *Chalybion femoratum*, va *Ch. turanicum* boshqa arilarning uyasidan foydalanishi aniqlandi.

Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatadiki voyaga yetgan arilarning *Podalonia affinis* *P. fera*, *P. hirsuta*, *P. luffii*, *P. tydei*, *P. ebenina*, *Ammophila campestris*, *A.*

*heydeni*, *A. sabulosa*, *A. hungarica*, *A. gracillima*, *Eremochares dives*, *Sphex flavipennis*, *S. funerarius*, *S. pruinus*, *S. afer*, *Palmodes melanarius*, *P. occitanicus*, *Prionyx lividocinctus*, *P. nudatus*, *P. viduatus*, *Sceliphron destillatorium*, *S. deforme*, *S. madraspatanum*, *Chalybion femoratum*, *Ch. turanicum* turlari o‘simlik nektarlari bilan oziqlanishi kuzatildi.

Uyadagi oziqasi bo‘yicha *Podalonia affinis* *P. fera*, *P. hirsuta*, *P. luffii*, *P. tydei*, *P. ebenina*, *Ammophila campestris*, *A. heydeni*, *A. sabulosa*, *A. hungarica*, *A. gracillima* turlar faqat kapalak lichinkalari bilan, *Eremochares dives*, *Sphex flavipennis*, *S. funerarius*, *S. pruinus*, *S. afer*, *Palmodes melanarius*, *P. occitanicus*, *Prionyx lividocinctus*, *P. nudatus*, *P. viduatus* turlari chigirtkalarining lichinkalari, *Sceliphron destillatorium*, *S. deforme*, *S. madraspatanum*, *Chalybion femoratum*, *Ch. turanicum* turlari esa o‘rgimchaklarning lichinkalari bilan oziqlanishi aniqlandi.

Bobning 4.2-bo‘limi “Qazuvchi arilar va o‘simliklar o‘rtasidagi trofik aloqalar” deb nomlanib unda qazuvchi arilar (Sphecidae) va o‘simliklar o‘rtasidagi trofik aloqalar yoritilgan. Ma’lumki, voyaga yetgan arilar (Imago) entomofil o‘simliklarga qo‘nib, ularning nektarlari bilan oziqlanadi va boshqa hasharotlar bilan birga o‘simliklarni changlanishida muhim rol o‘ynaydi. Farg‘ona vodiysida qazuvchi arilarning madaniy va yovvoyi o‘simliklar bilan biotsenotik aloqasini o‘rganish davomida, 30 turdagi o‘simliklarga qo‘nganligi va ular bilan oziqlanishi qayd etildi. Farg‘ona vodiysida 19 oilaga mansub o‘simlik gullariga qazuvchi arilar qo‘nib, ular bilan oziqlanganligi qayd etildi. Jumladan, Sutlamadoshlarda (Euphorbiaceae) 18-tur, Yalpizdoshlarda Labguldoshlar (Lamiaceae) 13 tur, Qoqio‘tdoshlarda (Murakkabguldoshlar) (Asteraceae) 10 tur, Yulg‘undoshlarda (Tamaricaceae) 8-tur, Karamdoshlarda (Brassicaceae) 7 tur, Isiriqdoshlarda (Nitrariaceae) 6 tur, Ziradoshlarda (Soyabonguldoshlar) (Apiaceae) 5 tur, Chinniguldoshlarda (Caryophyllaceae) 5 tur, Gultojixo‘rozdoshlarda (Sho‘radoshlar), (Amaranthaceae) 5-tur, Burchoqdoshlar (Dukkakdoshlar) (Fabaceae) 6 tur, Govzabonguldoshlarda (Boraginaceae) 2 tur, Torondoshlarda (Polygonaceae) 2 tur, Zubturumdoshlarda (Plantaginaceae) 2 tur, Karmakdoshlar (Plumbaginaceae) 2 tur, Navro‘zguldoshlarda (Primulaceae) 1 tur, Polemonaceae 1 tur, Zirkdoshlarda (Berberidaceae) 1 tur, Ro‘yandoshlarda (Rubiaceae) 1 tur.

Bobning 4.3-bo‘limi “Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilarining (Sphecidae) biotoplardagi soni va zichligiga asosan taqsimlanishi” deb nomlangan ushbu bobda Farg‘ona vodiysi qazuvchi arilarining turlar xilma - xilligi darajasining baholashda mezonlari Pesenko 1982 usuli qabul qilindi va Sturgers shkalasi turlarning ko‘pligi modellarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qildi Sturgess formulasi asosida 9 ballik boylik shkalasi tanlangan bo‘lsa – da, bizda turlarning boylik nuqtasi 7 balli miqdorini tashkil qildi. Bu turlar ichida sturgers shkalasining eng katta 7 ballini 249 tadan *S. madraspatanum* turidan ortiq namunalarni uchratmadik.

Yig‘ilgan va aniqlangan turlar har xil nisbatdagi boylikga ega bo‘lib, quyidagicha taqsimlanadi: juda kam turlar 3 ta, noyob turlar 5 ta, kam turlar 9 ta, odatiy turlar 2 ta, ko‘p uchraydigan turlar 3 ta, juda ko‘p uchragan tur 4 ta ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, turlarning boyligi jihatidan III-shkala bo‘yicha tarqalgan turlar ko‘pchilikni tashkil qildi.

Bobning 4.4-bo‘limi “Farg‘ona vodiysi hududida tarqalgan qazuvchi arilarning elektron ma‘lumotlar bazasini yaratish” deb nomlanib unda ushbu oilaga mansub 26 turga oid quyidagi ilmiy axborotlar keltirilgan: turlarning lotincha nomlari, yig‘ilgan hudud va vaqt ko‘rsatkichlari, morfologik va morfometrik xususiyatlari, shuningdek, turlar tarkibiga aniqlik kiritilgan.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi “**Sphecidae oilasi ayrim turlarining molekulyar-genetik tavsifi**” deb nomlanib, unda ushbu oilaga mansub munozarali turlarning genetik taxlili va tavsifi keltirilgan.

Ushbu bobning “*Podalonia* Fernald, 1927 avlodiga mansub turlarning molekulyar-genetik tavsifi” deb nomlangan 5.1 chi kichik bo‘limida *Podalonia* avlodiga mansub *P. affinis*, *P. ebenina* va *P. hirsuta* turlarni molekulyar genetik tahlil qilindi. O‘tkazilgan molekulyar-genetik tadqiqotlarda, *P. affinis*, *P. ebenina* va *P. hirsuta* turlarini mtDNKsi COXI sohasiga mansub 658 juft asosga ega bo‘lgan nukleotidlar ajratib olindi.

Ushbu turlarni solishtirib o‘rganish maqsadida, Milliy biotexnologik axborotlar markazidan (<https://blast.ncbi.nlm.nih.gov/>) *P. affinis* (Kirish raqami: JF927346), *P. hirsuta* (Kirish raqami: MZ627508) turlari olindi (2-jadval).

**2-jadval**


***Podalonia* avlodiga mansub turlarini mtDNK sini COXI sohasining nukleotidlar ketma-ketligini taqqoslash, (%).**

№	Turlar nomi	<i>P_hirsuta_Uz</i>	<i>P_affinis_Uz</i>	<i>P_ebenina_Uz</i>	<i>P_hirsuta_MZ627508</i>	<i>P_affinis_JF927346</i>
1	<i>P_hirsuta_Uz</i>	-	14,08	13,08	0	14,08
2	<i>P_affinis_Uz</i>	88	-	11,9	14	0
3	<i>P_ebenina_Uz</i>	82	75	-	13,09	12
4	<i>P_hirsuta_MZ627508</i>	0	88	82	-	14,08
5	<i>P_affinis_JF927346</i>	88	0	75	88	-

